

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha tayyorgarlik jarayonlari yakuniy bosqichga kirdi

// 07 January 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/aholi-va-qishloq-xo-jaligini-ro-yxatga-olish-bo-yicha-tayyor>



Xabar berib borayotganimizdek, yurtimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida vazirlik va idoralardan hududlarga biriktirilgan mas'ullar tomonidan o'rganish va tayyorgarlik ishlari yakuniy bosqichga kirib bormoqda.



Ro'yxatga olish tadbirlari Prezidentimiz Farmoniga muvofiq, joriy yilning 15-yanvaridan boshlanib, 28-fevralga qadar davom etadi.

Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona viloyatining Yozyovon tumaniga birlashtirilgan "O'zkimyosanoat" AJ mas'ullari hamda mutaxassislar tuman mahalla fuqarolar yig'inlarida hokim yordamchilari bilan uyma-uy yurib aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha o'quv seminarlarining yakuniy bosqichlarini o'tkazishmoqda.

Shu bilan birga mahallalardagi aholi ayniqsa, nuroniy, oqsoqollar bilan mazkur jarayonlar haqida suhbatlashildi.



